

## **BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARDA LUG`ATLARDAN FOYDALANISH MALAKALARINI SAKLLANTIRISH METODIKASI**

*Normurodova Nigora Erkin qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat*

*Pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarda imlo lug`at savodxonligini oshirish, so`z boyligini kengaytirishda so`zlarning imlosi, ma`nosи, ma`nodoshi, qarama-qarshi ma`nosи, uyadoshini bilish zaruriyati hamda ulardan to`g`ri foydalanish jihatlari haqida fikr yuritilgan.


**Kalit so`zlar;** imlo lug`ati, savodxonlikni oshirish, ma`nodosh so`zlar, zid ma`noli, uyadosh so`zlar, so`z boyligi, Fonetika, orfoepiya va orfografiya bo`limi.

Bugungi kunda boshlang`ich sinf o`quvchilarning so`z boyligini oshirish ona tili mashg`ulotlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. ularni turli lug`atlar bilan tanishtirish va bu lug`atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish, ayniqsa, muhim masalalardan biridir. Lug`at imlo savodxonligini oshirish, so`z boyligini kengaytirishning muhim manbai, o`quvchining asosiy maslahatchisidir. Lug`atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish avvalo ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki ehtiyoj sezilmasa, o`quvchi lug`atga murojaat qilmaydi. Ma'lum bir so`zning imlosi, ma`nosи, ma`nodoshi, qarama-qarshi ma`nosи, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarni ular faoliyatida zarur bo`ladigan lug`at turlari bilan tanishtirishga alohida e'tibor berishimiz muhim. Chunki turli lug`atlar bilan tanishgan o`quvchi nimani qayerdan izlash kerakligini ham yaxshi o`zlashtira oladi. Ma'lumki, keyingi yillarda o`zbek leksikografiysi katta muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritdi. Ayniqsa, 14 tomlik ensiklopediya lug`ati, 2 tomlik izohli lug`at, imlo lug`ati morfem lug`at, frazeologik lug`at, sinonim so`zlarning izohli lug`ati, antonim so`zlarning izohli lug`ati, paremeologik lug`at, turli sohalarga oid

atamalarning izohli lug‘atlarining nashr etilganligi o‘zbek leksikografiyasining taraqqiyotidan dalolat beradi. Ammo bu lug‘atlarining asosiy qismi akademik lug‘atlar bo‘lib, ular boshlang‘ich sinf va o‘rtta maktab o‘quvchilar uchun ancha qiyinlik qiladi. Bugungi ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining uyadosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining qaramaqarshi ma’noli soz’lar lug‘ati” kabilarga tobora ko‘proq zaruriyat sezmoqda. Bu hozirgi kunda kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalardan biri. Keyinchalik esa bu lug‘atlar sirasi “O‘zbek tilining tovushdosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilidagi eskirgan soz’lar lug‘ati”, “O‘zbek tili va adabiyoti: o‘rtta maktab o‘quvchilar uchun entsiklopediya”, boshlang‘ich sinflar uchun “Lug‘atchalar to‘plami” va boshqalar bilan to‘ldirilishi kerak. Lug‘atlardan tez va to‘g‘ri foydalanish uchun o‘quvchi zarur malakalarga ega bo‘lishi lozim. Bu malakalardan eng muhim alfavit tartibini yaxshi bilishdir. Alfavitni yoddan bilmagan har qanday o‘quvchi lug‘atlardan zarur so‘zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflardayoq o‘quvchilarining alfavit tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o‘rganish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi.

Lug‘at bilan ishslash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalana bilish keraklidir. Masalan, sinonimik qatorlar hosil qilish zarur bo‘lsa, imlo lug‘atiga murojaat etilmaydi. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug‘atga murojaat etish kerakligini bilgan bola, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi. Lug‘atlar turli xilda bo‘lgani kabi, ular bilan ushslash usullari ham rang-barangdir. O‘quvchilarining lug‘at bilan ishslash malakalarini shakllantirish uchun muayyan ish turlari talab etilsa, ularning imlo savodxonligini oshirish uchun tamoman boshqa, so‘z boyligini rivojlantirish uchun esa o‘ziga xos maxsus mustaqil ish turlaridan foydalanish talab qilinadi. “Imlo lug‘ati” faqat o‘quvchilarining imlo savodxonligini emas, balki so‘z boyligini oshirishda ham muhim qo‘llanmalardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda “Imlo lug‘ati” dan unumli foydalanish kerak. Masalan, “Fonetika, orfoepiya va orfografiya” bo‘limini o‘rganishda unli harflar: **a, i, u, u, o‘, e** harflari

ishtirok etgan so‘zlar topish, ya’ni tovushdosh bo`lgan so`zlarni ayta olish va farqlanuvchi so`zlarni ham ajrata olishga e’tibor qaratiladi.



**a – o, u – i, i – e** va boshqa unli harflar juftlari bilan farqlanuvchi so‘zlar tanlash, birinchi qatorda **a-o (ana-on, ata-ota, fan-fon, zar-zor)**, ikkinchi qatorda **u-i (uch-ich, un-in, urush-urish, tushum-tushim)**, uchinchi qatorda **i-e (ish-esh, is-es, tish-tesh, bil-bel)** unlilarning so‘z boshida, so‘z o`rtasida bu tovushlar tushib qolgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish ishlarini bajarishda “Imlo lug‘ati” zarur bo`ladi. “Ot” so‘z turkumini o‘rganishda otlarning ma’no guruuhlariga misollar tanlash, juft shaxs otlari, qo‘shib va ajratib yoziladigan qo‘shma otlar ro‘yxatini tuzish, “sifat +turdosh ot”, “son + turdosh ot”, “ot +fe’l” qolipli hosilalar ustida ishslash kabi mustaqil ishlar shu lug‘at yordamida bajariladi.

“sifat +turdosh ot”,	“son + turdosh ot”,	“ot +fe’l+ar”
Kattaqo`rg`on, Qizilqum	Beshkapa Uchquduq	O`ribbosar

Leksikologiya bo`limida berilgan ma’nodosh (sinonim) so‘zlarda ularning lug‘aviy ma’nosiga ahamiyat berish muhim. Chunki boshlang`ich sinf o`quvchilarga har so`zlarni o‘z o`rnida qo`llash kerakligini boshlang`ich darslarida

berib borilishi muhim ahamiyatga ega. Namuna sifatida inson tana a'zosi bo`lgan inson yuzini quyidagi ko`rinishda ifodalaymiz.

Opamning yuzidagi xoli biram yarashgan.

Bet-qo`lingni doim sovunlab yuv.

Chehrasi kulib turadigan qiz ekan.

Qo`pol gapirganda basharasi biram xunuk bo`lib ketadi.

Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsak, “Imlo lug`ati”dan ona tilining barcha bo`limlarini o`rganishda unumli foydalaniladi. U o`quvchining doimiy yo`ldoshi, darslik materiallarni to`ldiruvchi zarur qo`llanma sanaladi. Ona tili mashg`ulotlarida lug`atlardan foydalanish o`quvchilarning so`z boyligini oshirish, so`zdan nutqda to`g`ri va o`rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, ona tili fanini o`qitishning amaliy yo`nalishini kuchaytirish, mashg`ulotlarning foydalilik darajasini oshirishni lug`atlarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Ona tili o`qituvchisi lug`atlardan foydalanishni hayotiy zaruriyat, ehtiyojga aylantirish, o`quvchilarni ulardan foydalanish malaka va ko`nikmalari bilan qurollantirilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M. So`zlarni bo`g`inlarga ajratib yozish mashqlari – savodxonlikni oshirishning Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.:, 2010.
2. Yo`ldosheva muhim omili // Til va adabiyot ta`limida yangi pedagogik texnologiyalar // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materallari. I qism. – Toshkent: TDPU, 2006. – B. 82–84.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 5-жилд. – Ўзбекистон нашр.:, 2020. – 608 б.